



**“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA
TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2025-yil, 12-13-noyabr

**“PROBLEMS OF COMPARATIVE
PHILOLOGY AND TRANSLATION
STUDIES”**
international scientific and practical conference
November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO’I TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES”

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 “Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. – Toshkent, 2025. – 889 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Zuhridin Isomiddinov (O‘zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoecli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O‘zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O‘zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O‘zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog‘iston), Sag‘inbek O‘rinboyev (Qirg‘iziston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Islomjon Yakubov (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Sabohat Qahharova (O‘zbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (O‘zbekiston), Nigora Sulaymonova (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O‘zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O‘zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag‘ishlanadi. To‘plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimoni o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrda 6-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO‘K 845.711.05

KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic
“Problems of comparative philology and translation studies”. – Tashkent, 2025. – 889 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:

Shuhrat SIROJIDDINOV

Academician

Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhridin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Switzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Türkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Türkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag‘inbek O‘rinboyev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo‘chqorova (Uzbekiston), Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master’s students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

O‘ZBEK ADABIYOTINING ILK ROMANI TARJIMALARIDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLAR VA SEMANTIK O‘ZGARISHLAR

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.12.11/GDYQ1016

Murtazo Saydumarov,
Diplomat University Filologiya va xorijiy tillar kafedrası dotsenti,
Mahmudakhon Saydumárova
Prince Sultan University o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan muhim masalalardan biri – o‘zbek romanchiligi shakllanishidagi ilk asarlardan biri sanalgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi lingvomadaniy xususiyatlar va nutq odobiga oid til birliklarining xorijiy tillarga tarjimasi tahlil qilingan. Maqolada o‘zbek adabiyoti namunalarini xorijiy kitobxonlarga yetkazishda tarjimaning beqiyos o‘rni ta’kidlangan bo‘lib, asarning arab va ingliz tillariga tarjimasi misolida bu masala yoritilgan. Shu bilan birga, romandagi o‘zbek milliy mentalitetini chet tillarga tarjima qilishdagi ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, tarjimalarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklar, ularning sabablari hamda tarjimada vositachi tilning roli o‘rganilgan va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, badiiy tarjima, asliyat, tarjimashunoslik, nutq odobi birliklari.*

Abstract. The article examines one of the important issues from the perspective of both comparative linguistics and translation studies - translation into foreign languages of linguistic units of speech etiquette in the novel «Bygone Days» - one of the first works in the formation of Uzbek novels, written by Abdulla Qadiri, emphasizing the incomparable role of translation in familiarizing foreign readers with the work of Uzbek literature, using the example of their translation into Arabic and English. In addition to the positive aspects of translating the Uzbek mentality in the novel into foreign languages, the errors and omissions made in these translations, their causes, the role of the intermediary language in translation are studied, and recommendations are given for their elimination.

Keywords: *Abdullah Qadiri, bygone days, literary translation, original, translation studies, linguistic units of speech etiquette.*

Yaqinda (2025 yil oktyabr oyida) “Yangi asr avlodi” nashriyotida chop etilgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ruscha tarjimasi “Минувшие дни” (tarjimon – Muhammadnodir Safarov, mas’ul muharrir – Boris Golender, muharrir – Sherzod Komil Xalil) annotatsiyasida yozilganidek, ushbu “romanning adabiy taqdiri oson kechmadi. Kitobning ilk ruscha tarjimasi qisqartirishlar bilan qilingan bo‘lib, “O‘tkan kunlar” asaridan eng muhimi – haqqoniylik yo‘qolgan, muallifning o‘ziga xos ohangi sezilmay qolgan.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining M. Safarov tomonidan qilingan yangi tarjimasi esa asl muallif matnini to‘liq ifoda etadi. Endi rus o‘quvchisi XX asr o‘zbek badiiy nasrining durdonasi, milliy adabiyotning eng muhim asarlaridan biri bilan to‘liq tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi».

Jahon adabiyotida o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri va o‘zbek romanchiligi asoschisi sifatida tanilgan adib - Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining rus, ingliz, arab, xitoy va boshqa tillarga tarjimalari o‘zbek adabiyoti va madaniyatini jahonga tanitishda beqiyos ahamiyatga ega. Bir jihatdan asarning bir necha tilga tarjima qilinganini hisobga olgan holda o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, undagi milliylikni bayon etilishini o‘rganish tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim bo‘lsa, ikkinchi jihatdan tarjimashunoslikdagi azaliy bahsli mavzu bo‘lgan tarjimadagi vositachi til rolini yana bir bor ko‘rib chiqish dolzarbdir.

O‘zbekiston mustaqilligiga qadar jahon adabiyotining yirik asarlari ko‘pincha rus tili orqali o‘zbekchaga o‘girilgani kabi, o‘zbek adabiyoti namunalari ham xorijiy tillarga rus tili vositasida tarjima qilingan. “O‘tkan kunlar” asarining 1958-yildagi L. Bat va V. Smirnova tomonidan qilingan

ruscha tarjimasi yigirma besh yil davomida bir necha marta qayta ko‘rib chiqilgan bo‘lib, 1983-yilgi nashr avvalgi talqinlardagi ko‘plab xato va kamchiliklarni tuzatdi. Biroq shu bilan birga, bu tarjima aslyatga to‘liq mos emas, degan fikrlar ham mavjud edi [Касымова, 2006: 67-68]. Keyinroq Muhammadnodir Safarovning ruscha tarjimasi avvalgi talqin to‘liq emasligi va muallifning ruhini aks ettirmaganini ta’kidladi [Кадыры, 2025: 430]. Yangi tarjima muallif matnini to‘liq qamrab olgani va rus kitobxonlariga o‘zbek adabiyotining bu betakror asaridan to‘la bahramand bo‘lish imkonini bergani aytiladi, ammo unda ham jiddiy xato va nuqsonlar yo‘q emas edi [Quronov, 2018: 7]. Shu ruscha tarjima asarning ingliz va arab tillariga o‘g‘irilishida vositachi bo‘lib xizmat qildi.

Amerikalik tarjimon Mark Rizning “O‘tkan kunlar” asari tarjimasi o‘zbek ziyolilari tomonidan iliq kutib olindi. Ris asarni o‘zbek tilidan tarjima qilganini ta’kidlasa-da, aslyat bilan solishtirilganda, ba’zi o‘rinlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zbekcha matnga, ba’zisida esa ruscha tarjimaga tayangani ko‘rinadi. Ushbu badiiy tarjimada Ris bir qancha o‘zbekcha so‘z va atamalarni transliteratsiya yo‘li bilan berib, Amerika kitobxonlari asarni yaxshi anglab yetishi uchun 400 dan ziyod izoh qo‘shgan [Reese, 2018: 456].

O‘zbek adabiyotining ilk romani arab tiliga tarjima qilinishi – arab olamida o‘zbek adabiyotini targ‘ib etishda tarixiy voqea sanaladi. Biz ishonch bilan ayta olamizki, bu tarjima adiblarimiz, adabiyotshunoslarimiz va adabiyot ixlosmandlari tomonidan iliq qarshi olinadi. Bu ulkan vazifani Qohiradagi Ayn Shams universiteti tillar fakultetida, Ar-Riyoddagi Podsho Saud universiteti Tillar va tarjima fakultetida rus tili va tarjima o‘qituvchisi sifatida, shuningdek, Moskvadagi Misr madaniyat markazi raisi diplomatik va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borgan professor, tajribali tarjimon Muhammad Nasriddin al-Jibaliy romanni adabiy arab tiliga tarjima [al-Gebaly, 2024: 420] qilgan.

Al-Jibaliy tarjimasida asar arab tilida ravon va chiroyli jumlar bilan ifodalangan. U Abdulla Qodiriy asarlarida qo‘llangan nutq odobi birliklari, maqollar va iboralarni arab tilida jonli tarzda aks ettirishga erishgan. Masalan, o‘zbek xalq maqoli “Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra” (ruschasi: “Idushiy podobn reke, sidyashiy je – sinovke”; inglizchasi: “Those who walk are a river, those who sit are a reed mat”) arab tilida “الحركة بركة” [Harakat barakadir] deb berilgan. Shuningdek, “Teng tengi bilan, tezak qopi bilan” (inglizchasi: “Equal to equal, type with type, dung in its very own bag”) arab tilida “كل إناء على قدر غطاءه” [Har bir idish o‘z qopqog‘iga mos] tarzida berilgan. “Pichoqni avval o‘zingga ur, og‘rimasa boshqalarga ur” (inglizchasi: “Strike the knife first on yourself, if it doesn’t hurt, then strike it on someone else”) arab tilida “لا ترض لغيرك ما لا ترضاه لنفسك” [O‘zinnga ravo ko‘rmagan narsini o‘zgaga ravo ko‘rma] deb tarjima qilingan. Ko‘rinib turibdiki, al-Jibaliy tarjimasida Qodiriy asarining ruhi arab maqollari orqali ifodalangan.

Biroq har qanday ijodiy ishda bo‘lgani kabi, bu tarjimalarda ham ayrim jiddiy xato va kamchiliklar yo‘q emas. Bu, ehtimol, ularning aslyatdan emas, balki rus tilidan o‘g‘irilgani bilan bog‘liq. Bu haqda quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Arab tarjimasida personajlar ismlari turlicha yozilgan: Aybadaq (أيبداق، ايبداك), Hamid (حامد، حميد), Sayfi (صافي، صايفي، سيفي). Olim (عالم) va Alim (عليم) ismlari bir xil (عليم) tarzida berilgan. Geografik nomlar ham turlicha yozilgan: Qo‘qon (قوكان، قوقان، قوقند), Andijon (أنديجون), Farg‘ona (فرغانة، فرجان، فرجان), shuningdek, mahalla va qabriston nomi “Xo‘ja Ma‘oz” (خوجة معاذ، قورباشي، رئيس الشرطة، “Qo‘rboshi”), (قوشبكي، والي) “Qushbegi” (الحاج موعوظ، خوجة معوز) turlicha berilgan. (القاره تشوبان، القاره تشابان) kabi unvon va familiyalar ham bir xil berilmagan. Bu esa o‘z o‘rnida tarjimada texnologiya vositalaridan foydalanilganligi ehtimoli haqida savollarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Qarindoshlik atamalarida ham xato bor. O‘zbek va arab tillarida “amma”, “xola”, “amaki” va “tog‘a” so‘zlari aniq ajratilgani holda, rus tilidagi “tyotyа” va “dyadyа” so‘zlari ta’sirida bir necha joyda “xola” so‘zi arab tiliga “amma” deb tarjima qilingan, “tog‘a” esa “amaki” deb berilgan.

Inglizcha tarjimada bunday tushunchalar to‘g‘ri berilgan. Biroq bir personaj yoki shahar nomi, lavozim atamaları bir asarning o‘zida turlicha yozilishi ham asliyat, ham tarjima qiymatini pasaytiradi.

Ko‘rsatib o‘tilganidek, asardagi nutq odobi birliklarini to‘g‘ri tarjima qilish o‘zbek mentaliteti, urf-odatları va ijtimoiy munosabatlarini namoyon etishda juda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Otabek Marg‘ilonga ish safari bilan borganda, Rahmat va Hamid uni ko‘rishga chiqishadi. Bu bir vaqtning o‘zida ham savdo masalasini muhokama qilish, ham Toshkentdan kelgan mehmonga hurmat ko‘rsatish ifodasi edi. Rahmat uni uyiga taklif qiladi, ammo Otabek muloyimlik bilan rad etadi va shunday deydi:

“Bu saroydan sizlarning uyingizga ko‘chishim og‘ir, - dedi Otabek, - ammo otangizning ziyoratlariga borishga har qachon hozirman”.

“It is difficult for me to move from this palace to yours,” said Atabek, “but I am always ready to visit your father.” →

“Mne ne xotelos bi pereyezjat iz etogo karavan-saraya, - otvetil Atabek, - a vot posetit vashego otsa ya gotov v lyuboye vremya”

“لا أرغب في الانتقال من هذا النزل، لكنني مستعد لزيارة والدك في أي وقت”.

Bu yerda suhbatdosh taklifini rad etish uslubi ruscha tarjima vositachiligi sabab noto‘g‘ri berilgan. Natijada arabcha tarjimada nutq odobi ma’nosi yo‘qolgan. “Men ko‘chishni xohlamayman” degan javob, “Uyimizga ko‘ching” degan taklifga nisbatan behurmatlik sanaladi. Bu xato “Mne ne xotelos” jumlasining “لا أرغب” deb arab tiliga tarjima qilinganidan kelib chiqqan. Inglizcha tarjima esa o‘zbek nutq odobini ma’no va uslub jihatdan to‘g‘ri aks ettirgan.

Arabcha tarjima matnida bir qator so‘zlar noto‘g‘ri tarjima qilingani sababli ayrim joylar kitobxon uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan. Masalan, «Olovni qo‘yaturib, qudalarga dasturxon olib chiqingiz» jumlası rus tilida «Broste vozitsya, Nesite skoreye dastarxan dlya svatov» tarzida berilgan. Natijada «qudalar» so‘zi arab tiliga «sovchilar» (الخطّاب) deb tarjima qilingan, chunki rus tilidagi «svati» so‘zi ham «sovchilar», ham «qudalar» ma’nosini anglatadi. Arabcha tarjimada Ziyo shohichining so‘zi “Qudalar uchun dasturxon olib chiqing” emas, balki “Sovchilar uchun dasturxon olib chiqing” deb o‘girilgan bo‘lsa-da, Mirzakarim qutidor Ziyo shohichi va Hasanalining tashrifi maqsadini anglay olmaganı ta’kidlanadi. Bu holat kitobxonlarni chalg‘itishi mumkin.

Inglizcha tarjimada esa asliyatmatnida yo‘q bo‘lgan o‘zbekcha so‘zning transliteratsiyasi qo‘llanilgan: “Leave off with building your fire and prepare the tablecloth for your newly arrived sovchi” → “O‘t yoqish ishini qo‘ying-da, yangi kelgan sovchi uchun dasturxon tayyorlang”. Asliyatdagi «qudalar» so‘zi o‘rniga inglizcha tarjimada ham asliyatda mavjud bo‘lmagan «sovchi» so‘zi ishlatilgan. Bu holat esa asarnı ingliz tiliga o‘giran tarjimon ba’zi o‘rinlarda asl matndan emas, balki ruscha tarjimadan foydalanilganini ko‘rsatadi.

«To‘ybeka o‘zining sovib qolgan oshini yemak uchun... o‘tirdi» jumlası arab tilida “جلست” “بالقرب من أفتاب آیم لتأكل مما تبقى من طعام الضيوف” (“To‘ybeka Oftob oyim yoniga mehmonlardan qolgan taomdan yemoqchi bo‘lib o‘tirdi”) tarzida berilgan.

Ayrim jumlarlar asliyatga teskari ma’noda tarjima qilinib, Qodiriy uslubi buzilgan. Masalan: “Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir” jumlası arab tilida “إن القيام بدور المستشار عندما يتخذ حكامنا قرارًا ليس مهمة مستحيلة” tarzida, ya’ni “Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz emas” deb, mutlaqo qarama-qarshi ma’noda berilgan.

Ruscha matnda tarjimon tomonidan kiritilgan, asliyatda mavjud bo‘lmagan ibora va jumlarlar arabcha va inglizcha matnlarda ham aks etgan:

«...ikki darchalik bir uy...» ruscha tarjimada «domishko, s dvumya nizkimi okoshkami, ... chto slujili odnovremenno i dveryami» deb berilgan. Bu esa inglizchaga «the hovel, perhaps recently built, with two low-set windows and locked shutters that also served the dubious function of doors» (“bu kichik xonadon, ehtimol yaqinda qurilgan bo‘lib, ikki past oynasi bir vaqtning o‘zida eshik vazifasini ham shubhali tarzda bajarardi”. p. 215)

deb tarjima qilingan. Arabcha tarjimada ham aynan shunday tarjima qilingan: الكوخ، الذي ربما بُني مؤخرًا، به نافذتان منخفضتان ومصاريع مقفلة تخدم أيضًا وظيفة الأبواب.

Ruscha tarjimadagi bu kabi xatolar rus, ingliz va arab kitobxonlarida o‘zbeklar uylarida “eshik o‘rnida derazadan foydalanar ekanlar” degan noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi.

Arab tilidagi tarjimada ushbu asarning asl matnida qo‘llanilmagan, tarjimon tomonidan kiritilgan: «ikki kabutar kabi» (مثل زوجين من الحمام) va «tuxum qo‘ymoq uchun joy topolmay pitillagan tovuq kabi» (فأصبحت كالدجاجة التي تريد أن تضع البيضة ولا تجد مكانًا، ولم تهدأ) iboralar ham uchraydi.

Boshqa holatda esa aksincha, asliyatdagi tashbeh yo‘qolib, muallifning badiiy uslubi buzilgan: “Kumush baqadek qotib qolgan Zaynabga qaradi” jumlasini ruscha tarjimada “Kumush vzglyanula na zastivshuyu Zaynab”, arabchada “نظرت كوموش إلى زينب التي تجمدت” [Kumush qotib qolgan Zaynabga qaradi] tarzida berilgan. Inglizcha tarjima esa asliyatga yaqin qolgan: «Kumush looked at Zainab, who was frozen like a frog.»

Ikkinchi misolda tashbeh butunlay yo‘qolgan: “Maydon ikki tanob kenglikda edi” jumlasini arab tilida [Maydon ikki metr edi] deb berilgan. Ruscha tarjimada esa “Dvor zanimal okolo dvux tanapov zemli” deyilgan va “tanob” tushunchasi izohlangan. “Tanob” – 39,9 metr uzunlikka va 900 m² maydonga teng birlikdir. “Ikki tanob”ni “ikki metr” deb tarjima qilish yirik xato sanaladi.

Yana bir misol: “Bu kungi besh daqiqa ichida bo‘lib o‘tgan voqeani hech bir yo‘sin bilan ichiga sig‘dira olmas” jumlasini ruscha tarjimada “To, chto proizoshlo s nim ninche vecherom, v techeniye kakix-nibud pyati sekund, nikak ne ukladivalos u nego v golove” tarzida berilgan. Inglizcha tarjimada esa: «As for Atabek, he attempted to review his situation. He could only process events five seconds at a time. He felt uncertain about what had actually occurred and what might be a trick of the mind.» → “Otabek vaziyatni anglashga urinib ko‘rdi. U voqealarni faqat besh soniyadan his qila olardi. Nima haqiqatan sodir bo‘lgani va nima xayol tufayli deb shubhalanardi.”

Arab cha tarjimadagni mana bu jumlada (فكل ما وقع له في مساء ذلك اليوم لا يمكن أن يستوعبه خلال خمس) rus tilida yo‘l qo‘yilgan xato aynan takrorlangan. (ثوان)

Quyidagi jummalarga e’tibor qilamiz:

“Mayli bisotdan u-buni sotib pul qilib beraman”. “Ladno, prodam chto-nibud iz dorogix naryadov, soberu deneg”. «I will sell one of my expensive dresses and pay the money.» → “Men o‘zimning qimmatbaho liboslarimdan birini sotib, pul topib beraman.” “سأبيع شيئاً من ثيابي الثمينة، وسأدبر ” “المال اللازم”.

“Bisot” so‘zi arabchadan kirib kelgan bo‘lib, nafaqat qimmatbaho kiyim, balki insonning har qanday mol-mulkini anglatadi. Ammo ruscha tarjimada noto‘g‘ri berilgani uchun ingliz va arabcha matnlarda “qimmatbaho kiyimlar” tarzida talqin qilingan.

“Rafiqam Saodat chin saida edi”. Ruschaga “Jena moya - nedarom yee zvali Saodat-deystvitelno sdelala menya schastlivim”, deb o‘girilgan. Ruschadan inglizchaga va arabchaga rus tilidagi jumlagi mos ravishda tarjima qilingan. «Saodat, my wife, indeed made me happy.» → “Saodat, turmush o‘rtog‘im, rostdan ham meni baxtli qildi”. “جعلتني سعادتي، زوجتي، سعيدًا بالفعل”.

Shuningdek, “chiqqan” soʻzi rus tiliga “chakqan” deb notoʻgʻri tarjima qilinib, natijada ingliz va arab tarjimalarida “ilon chiqqan koʻcha” iborasi “ilon chaqqan koʻcha” tarzida berilgan: “onalar taʼbiricha, «ilon chiqqan» bu qoʻcha” ruschada “te mesta, gde, kak govoryat nashi materi, «ujalila gadyuka»”, deb berilgan. Natijada, inglizcha va arabchaga quyidagicha oʻgirilgan: «the place where, as our mothers say, he ‘was bitten by a snake’»,

المكان الذي، كما تقول أمهاتنا لدغته فيه الأفعى.

Albatta, birorta koʻchada kattaroq ilon chiqqan boʻlsa, oʻsha koʻcha shu bilan tanilishi mumkin. Lekin bu iborani oʻqigan rus oʻquvchisi ham, ingliz oʻquvchisi ham, arab oʻquvchisi ham «ilon qanday qilib koʻchani chaqioʻi mumkin?» deb oʻylanib qolsa kerak.

Ayrim joylarda ruscha xatolar sababli ingliz va arabcha tarjimalar asliyatga mutlaqo teskari maʼnoda berilgan: “Siz fотиha bersangiz va Otabek amr bersa, men yomonning boshini olishdan qaytsam”. - “Pust otdast mne prikaz, a vi vse blagoslovite menya, i ya, yey-bogu, snimu golovi merzavsam!”

Koʻrib turganimizdek, asliyatdagi «men yomonning boshini olishdan qaytsam» iborasi rus tiliga mutlaqo teskari «snimu golovi merzavsam» deb tarjima qilingan. Natijada ruschadagi hato arabcha tarjim ada ham takrorlangan.

“فليعطني الأمر، ولتباركوني جميعاً، والله لأقطعن رؤوس الأوغاد».

Yana bir misol:

“Musulmonqul Oʻttabboyga qaradi, undan xabarsizlik javobini olgach, soʻzida davom etti”. “Utabbay otvetil, chto osvedomlen o proisxodyashem. Musulmankul prodoljal”. “فأجاب أوتاباي بأنه على “علم بما يحدث هناك، ثم تبع مسلمان قل”.

Koʻrinib turganidek, vositachi tildagi xato asliyat jumlasini arabchada notoʻgʻri, inglizchada esa mutlaqo tushunarsiz tarzda aks ettirgan.

Jamiyatda ishlatiladigan nutq odobi birliklari oʻsha jamiyat aʼzolariga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni koʻrsatadi. Ammo tarjimada qoʻpol xatolar sababli bu jumlar umuman yoʻqolib ketgan. Masalan, Sodiq koʻchada turganida doʻstlari uni ziyofatga chorlab, biri shunday deydi: “Yur, yur, itbachcha, jinni-minni boʻlib qoldingmi?” Tarjimada esa bu jumla shunday berilgan: (هيا، سري، انطلق، أيتها العاهرة. هل فقدت عقلك؟)

yaʼni “itvachcha” (ruschadagi “sukin sin”) soʻzi “fohisha” maʼnosida tarjima qilingan va Sodiqqa nisbatan grammatik muannas (ayol) jinsidagi murojaat qoʻllangan.

Maqol va iboralarning tarjimasida ham muammolar mavjud. Masalan:

“Egasini siylagan itiga suyak tashlar qilibsiz-da, barakalla!” jumlasini rus tiliga “Molodes, vi postupili kak predanniy pes” [“Barkalla, siz vafodor itdek ish qildingiz”] deb xato tarjima qilingan. Bu jumla ingliz tiliga ham «Well done! You act like a faithful dog», arab tiliga ham bir xil “أحسنّت، “لقد تصرفت مثل كلب وفي مخلص” [“Barakalla! Siz sodiq, vafodor itdek ish tutdingiz”], tarzida berilgan. Har ikkisi ham asliyat maʼnosidan yiroq. Aslida ushbu jumlaning arab tiliga quyidagicha tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi: “أحسنّت، تصرفت مثل ما يقولون، يُكرم صاحبه من يرمي عظاماً لكلبه”.

Oʻzbek jamiyati va uning ijtimoiy munosabatlarini adabiyot orqali anglash juda muhim. Tarjimadagi xatolar notoʻgʻri talqinlarga olib kelishi mumkin. Masalan: “Toʻquvchilik hunariga shogird tushdim” jumlasini arab tilida “وتدربت في محل خياط” («Men tikuvchilik doʻkonida shogird boʻldim») tarzida berilgan. Bu xato «mato» soʻzining «koʻylak» deb tarjima qilinishida ham takrorlanadi.

Toʻy marosimlariga oid misol: “Yangalar kuyav soʻradilar” arabcha tarjimada “جاء أصهاره “يدعونه» («uni qaynotalari/qaynogʻalari kelib chaqirdi») tarzida berilgan. Ruscha tarjima “za jenixom yavilis yanga - svaxi”, inglizchada esa “the yangas asked for the groom” → “Yangalar kuyovni soʻradilar” tarzida aniqroq berilgan. Shu oʻrinda qoʻllanilgan soʻz (أصهار، صهر)، arab tilidagi (نصيب،

أنصبا) kabi turmush qurish orqali oʻrnatilgan qarindoshlikni belgilaydi va oʻzbek tilidagi “qaynota, qaynogʻa, qayni, pochcha” kabi soʻzlarni ifodalaydi.

Bu quyidagi jumalalarda ham koʻrinadi: “Soʻng Otabek ichkariga uzatildi”. Ruscha: “I Atabeka poveli v ichkari”, «And they brought Atabek to Ich Kari». Arabcha: “واصطحبوا أتابك إلى الداخل”.

Davomi: “Otabek yangalar kutib turgan tarafka yurdi”, “Atabek dvinulsya za svaxami”, «Atabek walked towards yangas» → “Atobek yangalar tomon yoʻnaldi.” Arabchada esa “سار أتابك معهم إلى عروسة” tarzida berilgan. Yuqorida keltirilgan ikkita jumla orqali kuyovni kelinning xonasiga erkaklar boshlab kirgan ekan degan maʼno anglashiladi. Bu oʻzbek va arab toʻylariga ham, milliy urf-odatlariga ham xos emas. Nikoh oqshomida kelinning xonasiga oʻzbek urf-odatlariga koʻra va arab urf-odatlarida ham kuyovdan boshqa birorta begona erkak kirmaydi. Arabcha tarjimada esa kuyovni chimildiqqa erkaklar olib kirgan degan maʼno kelib chiqadi.

Otabek va Ali suhbatidagi misol:

“Have you had a child with your Margilani wife?» →»Margʻilonlik xotiningizdan farzand koʻrganmisiz?» / «No..» → «Yoʻq...» / «You have been married for several years now. Did they perish young?» →»Sizning nikohingizga ancha yil boʻlgan, farzandlaringiz kichikligida vafot etganmi?» / «That’s right, they passed away.» → «Ha, shunday, ular vafot etgan.»

Koʻrinib turganidek, arabcha tarjima asliyatga ham, ruschaga ham mos kelmaydi, inglizcha tarjima esa maʼnoni toʻgʻri ifodalaydi.

Ayrim arabcha soʻzlar ham notoʻgʻri berilgan. Masalan, «astagʻfirullah» (استغفر الله) “may God forgive you” (سامحك الله) deb, «subhanallah» (سبحان الله) baʼzi joylarda “oh God” (يا إلهي), boshqa joylarda “ajabo” (يا للعجب) deb berilgan. «bless you» (بارك الله) esa “thank you” (شكرا لك) deb xato tarjima qilingan.

Shu oʻrinda aqidaviy xatolar haqida ham toʻxtalib oʻtsak.

Qadiriyning “Dark Days” qismida “har nuchukda duodan qolmayliq” («we should not stop praying for him» → “Har qanday holatda ham unga duo qilishdan toʻxtamasligimiz lozim”) jumlasini rus tilida “Vo vsyakom sluchaye, nado prodoljat vorojbu”, arab tilida esa «على أية حال، يجب أن نكمل في» tarzida notoʻgʻri berilgan.

Kumushning onasiga yozgan xatidan: “This is the fifth day that I started praying for the soul of my late grandmother.” → “Bugun marhum buvim ruhiga Qurʼon oʻqishni boshlaganimga beshinchi kun boʻldi.”

Bir soʻz qoldirilishi ham maʼnoni oʻzgartiradi. Masalan: “chillalik uyga kechasi koʻchadan kelib kirish yaxshi emas” («it is not good to enter the house of a girl from the street at night» → “Tun vaqtida qiz uyiga koʻchadan kirish yaxshi emas.”) Arab tilida esa “no one should enter a woman during the first forty days after giving birth...” deb berilgan. “tunda” soʻzining qoldirilishi butun maʼnoni oʻzgartirgan.

“Men senga aytib qoʻyay, Kumush,” - dedi turar ekan Qutidor Oftob Oyimga.

«I’ll tell you, Kumush,» → “Men senga aytib qoʻyay, Kumush,” dedi Qutidor Oftob Oyimga.

Qodiriyning «The Scorpion from the Altar» asarida:

- «Hey, Rana! - she said to Makhdum, who was gone in the yard, - our bread has become stale, and there is not enough time to make dough, can you buy fresh bread from the market?» → “Hay, Ra’no! – dedi u hovlida ketayotgan Maxdumga, – nonlarimiz eskirib qoldi, xamir qilishga vaqt yoʻq, bozordan yangi non olib kelasizmi?” [Qodiriy, 1994:220]

Koʻrinib turibdiki, arabcha va ruscha tarjimalarda ism «mujenek» va «يا رجل» kabi berilgan.

“Bu kishi boʻlsa, nega biravni oʻrtasigʻa tushasan, deb mendan xafa boʻldilar...”

«This man» laughed at Kumush’s concoction of lies. → “Bu kishi esa, nima uchun begona ishlarga aralashasan, deb mendan xafa boʻldi...”

Asliyatda yo‘q jumla va iboralar tarjimon tomonidan kiritilib, Qadiriylar uslubini buzgan. Ruscha tarjima ta’sirida Abdulla Qadiriylarning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha va arabcha tarjimalarida qahramonlar ismlari turlicha yozilishi, geografik nomlar turli o‘rinlarda turlicha yozilishi, urug‘lar nomlaridagi xatoliklar, vaqt va o‘lchov birliklari noto‘g‘ri berilishi, ba’zi jummlar teskari ma’noda tarjima qilinishi, asliyatdagi jummlar qoldirilishi, tarjimalarda asliyatda yo‘q jummlar kiritilishi kabi xatoliklar muallif uslubining buzilishiga sabab bo‘lgan.

Xalqlar bir-birini adabiy asarlarning tarjimalari orqali angelaydi, madaniyati, urf-odatlarini va nutq odobini biladi. Shuning uchun tarjima va nashr jarayonida soha mutaxassislari bilan yaqin hamkorlik qilish – zaruriy ehtiyojdir.

Adabiyotlar:

1. Abdulla Kadiri. Minuvshiye dni. Roman. Perevod s uzbekskogo M.Safarov. Tashkent: Yangi asr avlodi. 2025. – 496 s.
2. “O‘tkan kunlar”. Bygone Days by Abdullah Qodiriyl. Translated by Mark Reese. Nashville TN, USA. 2018.
3. Abdulla Qadiri, al-Ayyam al-Khavali. Tarjamat dr. Muhammad Nasr al-Gebaly. “Dar al-Ma’arif li-n-nashr”, al-Qahira. 2024.
4. Abdulla Qodiriyl. Mehrobdan chayon. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent. 1994.
5. A.Kadiri. Skorpion iz altarya. Perevod s uzbekskogo L. Bat i V. Smirnovoy. Izdatelstvo «Xudojestvennaya literatura». Moskva. 1964
6. 2024. عبدالله قادري. عقرب في المحراب. رواية. ترجمة سيد محمود كاساني. دار «كريدو برنت غروب» للنشر، طشقند، 2024.
7. Kasimova, Z. O perevode roman «Minuvshiye dni». V jurnale «Prepodavaniye yazika i literaturi». № 6, 2006 g. Tashkent, str. 67- 78.
8. Dilmurod Quronov, Feruza Habibullayeva. “O‘tkan kunlar” tarjimasi: tahlil va tavsiyalar. «Jahon adabiyoti» jurnali, 2018 yil, 7-son.
9. Russko-uzbekskiy slovar v 2-x tomax. Glavnaya redaktsiya Uzbekskoy Sovetskoy Ensiklopedii. T., 1983-1984. T 1-y. 808 str. , T 2-y, 800 str. .
10. Uzbeksko-russkiy slovar. Pod redaktsiyey S.F.Akobirova i N.N. Mixaylova. Glavnaya redaktsiya Uzbekskoy Sovetskoy Ensiklopedii. T., 1988, 726 s.
11. Al-Maaajeem al-arabiyya <https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/>
12. Mahmadiyor Asadov. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. International Journal Of Literature And Languages, 5(12), 86–89.

	MUNDARIJA	
	I SHO‘BA. TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI	
1.	Zuhriddin ISOMIDDINOV. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	Uzoq JO‘RAQULOV. O‘zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	Xurram RAHIMOV. Alisher Navoiyning “Munojot” asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА. Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	Ne‘matilla OTAJONOV. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	Rukhsana IFTIKHAR. Beautification of Mughal women	26
7.	Наталья ФИЛИМОНОВА. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	Kosimboy MAMUROV. Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai’s Uzbek and English ghazals	34
9.	Xayrulla HAMIDOV. Muslimbek Yo‘ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	Ирода СИДДИКОВА. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO‘JAYEVA. Nafisiyning “Jannatning yarim yo‘lida” asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарый МАДРАИМОВ. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	Ziyodaxon TESHABOYEVA. “Boburnoma”da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	Zulkhumor MIRZAEVA. Politics under the mask of poetics: Chulpon’s translations in the 1920s-1930s	62
16.	Abdumajid MAMADALIYEV. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	Muhammadjon ABDUVALIYEV. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	Shermurod SUBHON. Ijodiy kengashlarda	84

20.	Shermurod SUBHON. Kitobxon oldida mas’uliyat	97
21.	Murtazo SAYDUMAROV, Mahmudaxon SAYDUMAROVA. O‘zbek adabiyotining ilk romani tarjimalarida lingvomadaniy xususiyatlar va semantik o‘zgarishlar	100
22.	Mahmadiyor ASADOV. Tarjima – qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti	107
23.	Toshtemir ALIMOV. Gender as a linguistic and cultural parameter in literary translation	113
24.	Tozagul MATYOQUBOVA. Ilk hasbi hol qasida va uning o‘zbek tarjimoni	116
25.	Dilafruz MUHAMMADIYEVA. “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolar	120
26.	Umida TURAeva. Some challenges of translating forensic terminology between English and Uzbek	125
27.	Елена ПАНОВА. Мифопоэтическая традиция и проблемы перевода и функционирования онимов в волшебной повести «Алиса в стране чудес» Л. Кэрролла	128
28.	Gulnoz MAMARASULOVA. Siyosiy matn tarjimasining lingvokulturologik jihatlari	137
29.	Эльнора БАГАБОВА. Эволюция переводческих теорий: от традиционных подходов к современным тенденциям	140
30.	Dilfuza KHUDAIBERDIEVA. Translation studies: traditional and modern approaches	144
31.	Gulnoz MAMARASULOVA, Ruxshona CHO‘LIYEVA. Diplomatiik matnlarning tarjimada ifodalanishi	148
32.	Dilshod AMIRQULOV. Tarjimashunoslikda til tipologiyasi asosida komparativ yondashuv	151
33.	Tozagul NASRULLAEVA. Literary translation as interpretation: on the basis of Dreiser’s literary works	154
34.	Мохира ЭШКУВАТОВА, Достонбек АХМАДОВ. Роль лингвострановедческого компонента в обучении переводу	156
35.	Islom TURDIYEV. Ingliz va o‘zbek tillaridagi ayrim ish yuritish terminlarining tarjima talqinidagi muammolari	160
36.	Фотима УМИРЗАКОВА. Проблемы традиционных и современных подходов в немецком переводе	163
37.	Shohsanam BEKMURATOVA. Maqollar tarjimasida tarjimonlarining lingvomadaniy yondashuvlari	166
II SHO‘BA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK MASALALARI		
38.	Sayed Mohamed Ahmad KORAYEM. Principles for developing comparative linguistic studies	171
39.	Nedim BAKIRCI. Milli kimlik inşasında halk biliminin işlevi	183
40.	Farhad RAHIMI. Beş, bel, bilek, elik/ el ve ilik kelimelerinin etimolojik ve anlamsal bağlantıları	190